

1. “Olimning geografiyaga oid 22 ta asari bo‘lib, shundan 12 tasi geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, 3 tasi mineralogiyaga oid va hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. U yunon va rim olimlaridan farq qilib olamning

geliotsentrik tuzilishi nazariyasini rivojlantirishga hissa qo‘shgan”. Ushbu ta’rif qaysi olimga tegishli?

- A) Muhammad al-Xorazmiy
- B) Abu Rayhon Beruniy
- C) Ahmad Farg‘oniy
- D) Abdurazzoq Samarqandiy

2. Agar topografik xaritada katak tomonlari 10 cm ga teng bo‘lsa, xarita masshtabi qanchaga teng bo‘ladi?

- A) 1:25 000
- B) 1:10 000
- C) 1:50 000
- D) 1:1 000 000

3. Gidrosferaning 3,5 foizini qanday suvlar tashkil etadi?

- A) quruqlik suvlari
- B) yerosti suvlari
- C) dengiz va okean suvlari
- D) muzliklar

4. Matnni o’qing.

“Materik iqlimining tarkib topishida Quyosh radiatsiyasi, relyef, havo massalari, okean oqimlari muhim rol o‘ynaydi. Materik oltita iqlim mintaqasida joylashgan. Tog‘larida balandlik iqlim mintaqalari mavjud”.

Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Afrika
- B) Janubiy Amerika
- C) Avstraliya
- D) Shimoliy Amerika

5. Quyidagi javoblar ichidan Tinch okeaniga tegishli bo‘lgan dengizni toping.

- A) Mouson
- B) Lazarev
- C) Amundsen
- D) Timor

6. Matnni o’qing.

Ushbu okeanning geologik tuzilishida turli xil yotqiziqlar qatnashadi. Jumladan, o‘rta okean tizmalarida bazaltli va vulqonli jinslar, materik sohillarida daryolar oqizib keltirgan qum, gil, loyqa jinslar tarqalgan. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Hind
- B) Shimoliy Muz
- C) Tinch
- D) Atlantika

7. Qaysi tekisliklarning zamini eng keksa platformalar hisoblanadi?

- 1) G‘arbiy Sibir; 2) Sharqiy Yevropa; 3) Turon;
- 4) Sharqiy Sibir; 5) Hind-Gang; 6) Arabiston.
- A) 2, 4, 5
- B) 1, 4, 6
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 4, 6

8. Matnni o’qing.

“Materikda XX asrning boshlaridan tabiatni muhofaza qilish masalalariga e’tibor berila boshlandi. Hozirgi kunda ko‘p mamlakatlarda milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar barpo etilgan. Muhofaza etiladigan hududlar materikning 1 % ini tashkil etadi”. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Afrika
- B) Shimoliy Amerika
- C) Avstraliya
- D) Janubiy Amerika

9. Afrika materigining chekka janubiy qismini qaysi tabiat zonasini egallagan?

- A) sernam ekvatorial o‘rmonlar
- B) fasliy sernam o‘rmonlar
- C) qattiq bargli doimiy yashil o‘rmonlar va butazorlar
- D) chalacho‘llar va cho‘llar

10. Janubiy Amerika materigiga oid to‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Materik asosini qadimgi qattiq va mustahkam platforma tashkil etadi. Platformaning mustahkam kristalli zamini materikning shimolida, g‘arbida va markaziy qismlarida yer yuzasiga chiqib yotadi.
- B) Cho‘kindi jinslar bag‘rida fosforit, osh tuzi, toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mir, neft, tabiiy gaz tarkib topgan. Materik temir va rangli metallar hamda uran zaxiralari bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinda turadi. Ko‘pgina qazilma boyliklar yer yuzasiga yaqin joylashgan.
- C) Materikda rudali va noruda qazilma boyliklar ko‘p tarqalgan. Tog‘larining magmatik va metamorfik jinslarida mis, qalay, qo‘rg‘oshin, oltin, kumush, platina, noruda konlardan oltingugurt, bor, yod, tabiiy selitra mavjud.
- D) Materik foydali qazilmalarga boy. Rudali foydali qazilmalar magmatik va metamorfik tog‘

jinslari tarkibida ko‘p uchraydi. Oltin, mis, volfram, uran, qalay, simob va boshqa rangli metallar hamda qimmatbaho toshlarning hosil bo‘lishi magmatik tog‘ jinslarida ko‘p uchraydi.

11. Ustyurt platosining qaysi qismi qir va botiqlardan iborat?

- A) markaziy
- B) shimoliy
- C) g‘arbiy
- D) janubiy

12. Matnni o‘qing.

“Okrugda may oyidan boshlab shimoli-g‘arbdan, g‘arbdan esuvchi havo massasi ta’sirida havo ilib, yog‘ingarchilik boshlanadi. Okrugga yiliga o‘rtacha 80—100 mm atrofida yog‘in yog‘ib, uning 45 foizi bahorga, 10—11 foizi yozga to‘g‘ri keladi”.

Matndagi ma’lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.

- A) Ustyurt
- B) Quyi Amudaryo
- C) Qizilqum
- D) Orol

13. Surxondaryo tabiiy geografik okrugining Turkmaniston bilan bo‘lgan chegarasi qaysi tog‘ning suvayirg‘ich qismidan o‘tadi?

- A) Boysuntog‘
- B) Ko‘hitang
- C) Bobotog‘
- D) Surxontog‘

14. “Zarafshon tog‘i yonbag‘ri, Hojiqo‘rg‘on soyining chap qirg‘og‘ida joylashgan. Maydoni 5378 ga. Yer yuzasi o‘rta balandlikdagi (1500—2000 m) tog‘lardan iborat”. Ushbu ta’rif mamlakatimizdagi qaysi qo‘riqxonaga tegishli?

- A) Hisor
- B) Zomin
- C) Zarafshon
- D) Kitob

15. Farg‘ona tabiiy geografik okrugiga oid ma’lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Turon plitasining cho‘kkan qismida joylashib, neogen davrida dengiz suvining cho‘kindisi tufayli quruqlikka aylangan, so‘ngra daryo o‘zanini yuvib, chuqurlashtirib, qator qayirlar hosil qilgan. Bu qayirlar gil, qumoq va lyosimon jinslardan tashkil topgan.

- B) Okrugning janubidagi tog‘ tizmalari paleozoy erasining gersin tog‘ hosil bo‘lishi jarayonida ko‘tarilgan. Alp tog‘ hosil bo‘lishi jarayonida pasaygan tog‘lar qayta ko‘tarilib, dengiz suvi

chekinib, okrugning tekislik qismi ham quruqlikka aylangan.

C) Tog‘lari paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralari jinslaridan tarkib topgan. Tog‘larda granit, paleozoy ohaktoshlari, qumtosh va slaneslar, tog‘ etaklari va daryo vodiylarida paleogen, neogen va antropogen davrlarining shag‘al, qum va gil qatlamlari keng tarqalgan.
D) Okrug tektonik botiqda joylashib, neogen davrining oxiri va quyi antropogen davrida dengizdan bo‘shab, quruqlikka aylangan.
So‘ngra atrofidagi tog‘lardan boshlanadigan daryolar olib kelgan qum, gil, lyosimon jinslar bilan qoplangan.

16. Mamlakatimizdagi qaysi shaharda liftsozlik zavodi mavjud?

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- C) Namangan
- D) Urganch

17. “Samarqanddan taxminan 50 km janubi sharqda, Qashqadaryo viloyati chegarasida joylashgan. Shaharda bir nechta gilam fabrikalari, tabak-ferment va shifer zavodlari faoliyat yuritadi. Samarqand viloyatining eng yirik sharq bozori shu shaharda joylashgan”. Ushbu ta’rif Samarqand viloyatidagi qaysi shaharga tegishli?

- A) Kattaqo‘rg‘on
- B) Urgut
- C) Jomboy
- D) Nurobod

18. Jahoning eng yirik qalay konlari Osiyoning qaysi subregionida joylashgan?

- A) Janubi-g‘arbiy Osiyo
- B) Janubi-sharqi Osiyo
- C) Sharqi Osiyo
- D) Janubiy Osiyo

19. Dengiz suvi qalqishidan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi davlatni belgilang.

- A) Daniya
- B) Kanada
- C) Germaniya
- D) Niderlandiya

20. “Daryolar to‘ri ancha zich. Eng yirik daryolar Reyn, Dunay, Elba, Vezer va Oder hisoblanadi. Barcha yirik daryolar kanallar bilan o‘zaro bog‘langanligi tufayli uning ichki suv transport yo‘llari Dunay orqali Shimoliy va Boltiq dengizlari portlarini Qora dengiz portlari bilan bog‘laydi. Ushbu ta’rif qaysi mamlakatga tegishli?

- A) Germaniya
- B) Fransiya
- C) Italiya
- D) Buyuk Britaniya

21. Yevropaning qaysi subregioni Xalqaro mehnat taqsimotida eng avvalo, subtropik dehqonchilik bilan turizmga ixtisoslashgan?

- A) Sharqiy Yevropa
- B) G'arbiy Yevropa
- C) Janubiy Yevropa
- D) Shimoliy Yevropa

22. Matnni o'qing.

"Hududining katta qismi, ayniqsa, markazi va sharqi baland tog'lar bilan band, shimoliy va janubi-g'arbiy hududlarini tog'oldi tekisliklari egallaydi. Kuchli zilzilalar tez-tez ro'y berib turadi. Mamlakat ko'mir, neft, temir, mis, marganes kabi foydali qazilmalarga boy. Mamlakatga subtropik quruq kontinental iqlim xos". **Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.**

- A) Afg'oniston
- B) Eron
- C) Turkiya
- D) Pokiston

23. Matnni o'qing.

"Subregion Sahroyi Kabir va Gvineya qo'ltiqlari oralig'ida joylashgan bo'lib, hududi tropik cho'llar, savanna, hamda nam ekvatorial mintaqaga to'g'ri keladi. Aholisining milliy tarkibi ancha murakkab. Mustamlakachilik davrida qulchilik eng avj olgan mintaqasi hisoblanadi". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) G'arbiy Afrika
- B) Janubiy Afrika
- C) Sharqiy Afrika
- D) Shimoliy Afrika

24. Hindiston sanoatiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakat. Sanoati eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tarmoqlar – elektronika, elektrotexnika, dastgohsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, asbobsozlik, kimyo va neft-kimyo sanoatiga ixtisoslashgan.
- B) Sanoatning tayanch tarmog'i yoqilg'i-energetika majmuasidir. Mashinasozlik sanoati ayniqsa, tez rivojlanmoqda. Mamlakatda televizor, maishiy xizmat texnikasidan tortib avtomobil, kompyuter, turli o'lchov va elektrotexnika mahsulotlarigacha ishlab

chiqarilmoqda. Yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchi sanoat tarmoqlari hisoblanadi.

- C) Sanoatning eng muhim tarmoqlari avtomobilsozlik, kemasozlik, elektro texnika, elektronika, atom energetikasi, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, yengil sanoati hisoblanadi. Po'lat, cho'yan, rux, qo'rg'oshinni eritish, avtomobillar va ularning ehtiyyot qismlari, polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha jahoning birinchi beshtaligiga kiradi.
- D) Sanoatining asosini metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoati tashkil etadi. Ko'mir va temir rudalari, osh tuzini qazishda, po'lat, cho'yan, mis, alyumimiy, sement, ipgazlama, poyabzal ishlab chiqarishda jahon mamlakatlarining birinchi beshtaligiga kiradi.

25. Jamiyatning tabiatga ta'siri ortib borishining qaysi bosqichi nisbatan eng qisqa davom etgan bo'lib, geotizimlarning eng kuchli o'zgarganligi bilan ajralib turadi?

- A) qishloq xo'jalik inqilobi
- B) sanoat inqilobi
- C) ekologik munosabatlар
- D) fan-texnika inqilobi

26. Xristian dinining katolik mazhabi qaysi mintaqalarda keng tarqalgan?

- 1) G'arbiy Yevropa; 2) Shimoliy Amerika; 3) Tropik Afrika; 4) Avstraliya; 5) Janubiy Amerika; 6) Shimoliy Yevropa; 7) Janubiy Yevropa.
- A) 1, 3, 5, 7
- B) 2, 4, 6, 7
- C) 1, 4, 5, 6
- D) 2, 3, 5, 6

27. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tishning nechanchi bosqichini boshdan kechirmoqda?

- A) birinchi
- B) ikkinchi
- C) uchinchi
- D) to'rtinchi

28. Tinch okeanbo'yи megalopolisidagi eng yirik aglomeratsiyani toping.


- A) San-Fransisko
- B) Los-Anjeles
- C) Sietl
- D) San-Diyego

29. Ushbu yozuvsiz xaritada Xalmixer va Flores dengizlari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 4
B) 1, 3
C) 1, 4
D) 2, 3

30. Ushbu yozuvlari xaritada 2 va 3 raqamlar bilan Yevrosoyo materigining qaysi iqlim mintaqalari egallagan hududlar tasvirlangan?



- A) mo'tadil va subtropik
B) subtropik va tropik
C) mo'tadil va tropik
D) tropik va subekvatorial

31. O'rta Osiyonning yozuvlari xaritasida Tarbag'atay va Uzinqara tizmalari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 4
B) 2, 3
C) 1, 3
D) 1, 4

32. Chirchiq-Ohangaron tabiiy geografik okrugining yozuvlari xaritasida 1 va 2 raqamlar bilan qaysi daryolar tasvirlangan?



- A) Chirchiq va Ko'ksuv
B) Ohangaron va Ugom
C) Chirchiq va Chatqol
D) Ohangaron va Piskomsoy

33. Quyidagi jadvaldan to'g'ri berilgan qatorlarni belgilang.

Nº	Botiq nomi	Qaysi okeanga tegishli
1	Shimoli-g'arbiy	Atlantika
2	Chili	Tinch
3	G'arbiy Avstraliya	Tinch
4	Somali	Hind
5	Braziliya	Tinch
6	Shimoliy Amerika	Atlantika

- A) 1, 3, 6
B) 2, 4, 6

- C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 5

34. Quyidagi daryolar va ularning uzunligi mos ravishda to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.

Nº	Daryolar	Variantlar	Uzunligi, km
1	To‘lopondaryo	a	186
2	Qoratog‘	b	124
3	Sheroboddaryo	c	100


- A) 1-c, 2-a, 3-b
B) 1-b, 2-c, 3-a
C) 1-c, 2-b, 3-a
D) 1-b, 2-a, 3-c

35. O‘zbekistondagi viloyatlar va ularning tashkil topgan sanasi mos ravishda to‘g‘ri keltirilgan javobni toping.

Nº	Viloyatlar	Variantlar	Tashkil topgan sanasi
1	Andijon	a	06.03.1941
2	Qashqadaryo	b	16.02.1963
3	Xorazm	c	15.01.1938
4	Sirdaryo	d	20.01.1943

- A) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a
B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c
C) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a
D) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b

36. Quyidagi chizmada gorizontallar har 100 metrdan o‘tkazilgan bo‘lsa, D nuqtaning mutlaq balandligini toping.




- A) 4700 m
B) 4400 m
C) 4600 m
D) 4500 m

37. Ashxobod shahrida (57° sh. k va 58° shq.u) turgan kuzatuvchi 13° sharqiy uzunlikda joylashgan kuzatuvchidan Quyosh chiqishini necha soat oldin ko‘radi?

- A) 1 soat
B) 2 soat
C) 3 soat
D) 4 soat

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, yillik amplitudani aniqlang.



- A) 28°C
B) 24°C
C) 27°C
D) 25°C

39. Xonaning uzunligi 6 metr, eni 4 metr, balandligi 2,5 metr bo‘lsa, ushbu xonadagi havoning og‘irligini toping.

- A) 85,5 kg
B) 72,2 kg
C) 60 kg
D) 79,8 kg

40. Kura, Kashofrud, Araks daryolari qaysi tabiiy geografik o‘lkada joylashgan?

- A) Janubiy Osiyo
B) Markaziy Osiyo
C) Old Osiyo
D) Janubi-g‘arbiy Osiyo

41. Ushbu xaritada keltirilgan viloyat haqidagi noto‘g‘ri fikrni toping.



- A) Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 1/10 qismini, yengil sanoat mahsulotlarining 7 foizdan ortig'ini beradi.
- B) Yoqilg'i sanoati yalpi mahsulot hajmi bo'yicha mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi.
- C) 250 dan ortiq tarixiy-me'moriy obida, 900 dan ortiq arxeologik yodgorliklar mavjud.
- D) Qorabayir zotli ot yetishtiradigan maxsus xo'jalik mavjud.

- 42.** "Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari – bug'doy, makkajo'xori, soya, paxta, shakarqamish, qandlavlagi, turli sabzavot va mevalar. Makkajo'xori, soya, tamaki va paxta eksporti bo'yicha jahonda 1-o'rinda turadi". Ushbu ta'rif qaysi mamlakatga tegishli?
- A) Xitoy
- B) Hindiston

- C) Braziliya
D) AQSH

- 43.** Braziliyaning aholi zichligi 2019-yil holatiga ko'ra 25,2 kishi/km² ni, maydoni esa 8 515,7 ming km² ni tashkil qildi. 2019-yil holatiga ko'ra Braziliyaning aholisi qanchani tashkil qilgan?
- A) 216,6 mln
B) 215,3 mln
C) 212,8 mln
D) 214,5 mln

- 44.** 2020-yil O'zbekiston Respublikasida immigrantlar soni 191,2 ming kishini, emigrantlar soni esa 203,7 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, mexanik ko'payish qanchani tashkil etgan?
- A) -12,5 ming kishi
B) 12,5 ming kishi
C) 10,6 ming kishi
D) -10,6 ming kishi

- 45.** Davlat tuzilishining qaysi turidagi davlatlarda qonunchilik, ijro va sud hokimiyyati markaziy hamda hududiy darajalardan tashkil topadi?
- A) monarxiya
B) federatsiya
C) konfederatsiya
D) unitar